



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Usmonov Abdurashid  
Norbo'tayevich

Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy  
markazi o'qituvchisi

## TA'LIM JARAYONIDA DEVIANT XULQ-ATVORGA MOYILLIGI BO'LGAN O'QUVCHILARNI ANIQLASH VA TARBIYALASH TAMOYILLARI

**Annotasiya.** Maqolada deviant xulqli o'quvchilarni aniqlash, o'quvchilarning deviant xulq atvorini oldini olish, deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash, deviant xulqli o'quvchilarni oilada ijtimoiy tarbiyaning muhim ekanligi, deviant xulqli o'quvchilarni jamiyatga zararli oqibatlari, deviant xulq atvor sog'lom yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'siri, deviant xulq atvor o'quvchilar orasida keng tarqalishini sabablari va oqibatlari, ta'lim jarayonida deviant xulq atvoriga moyilligi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash tamoyillari keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Deviant xulq atvor, bolalarni tarbiyalash, ota-ona ma'suliyati, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy nosog'lom muhit, deviant xulq atvoriga moyillik, nosamimiylik, mehirsizlik, e'tiborsizlik, loqaydlik, shavqatsizlik.



Jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalashning qaror toptirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, bugungi kunda yoshlar o'rtasida turli xil axloqiy tarbiyani yomonlashuvi, giyohvandlik, ichkilikka ruju qo'yish, o'zaro munosabatlarni nomuvofiqligi, nosamimiylik, mehirsizlik, shavqatsizlik, jinoyat yo'lga kirishi kabi zararli illatlar kuzatilmoqda. Bundan tashqari yoshlar o'rtasida organizm jismonan va ma'nan rivojlanishining sustlashuvi yoki erta balog'ot yoshiga yetish alomatlari (jinsiy tarbiyaning buzilishi, ota-onalarni farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizligi) kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Ushbu holatlar aksariyat yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etilmaganligi, darsdan tashqari vaqtlarda sportga, fanlarga oid to'garaklar bilan band etmaslik va ota-onalarning o'z farzandlarini nazoratsiz qoldirishi kabilar sabab bo'ladi. Natijada, salomatlikning yomonlashuvi, turli xil kasalliklarning kelib chiqishi, shuningdek, nopok yo'lga yetaklovchi omillar mavjud bo'lib, bular notarbiyalashni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'rtasida tarbiyalash ko'nikmalarini tarkib toptirishning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya uzviyligi asosida ma'nan va jismonan sog'lom, o'z salomatligini saqlash va qadrlay oladigan komil shaxs etib tarbiyalashdan iborat. Mazkur jarayonda tarbiyalash yuzasidan bilimlar, faoliyat usullari, ijodiy faoliyat usullari va ta'lim-tarbiya uzviyligi asosida o'qitish tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Shuni qayd etish kerakki, o'qitish tamoyillari – o'qitish tizimining tuzilishi, mohiyati, uning qonuniyatlari haqidagi, shuningdek, faoliyatni tashkil etadigan, amaliyotni boshqarishda namoyon bo'ladigan bilimlar majmuasi sanaladi. O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida tayaniladigan didaktik tamoyillar (takomillashgan varianti)ning tavsifi va tahlili quyidagilardan iborat.

**Ilmiylik tamoyili** – o'quvchilarni tarbiyalash jarayoni mazmuniga asos bo'ladigan va amaliy ahamiyati yoritilgan ilmiy bilimlar, faktlar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalarni o'rganishni kafolatlaydi.

**Tizimlilik tamoyili** – o'quvchilarni tarbiyalashda odam organizmi biologik sistema sifatida turli tuzilish va murakkablik darajasida o'rganish, shuningdek, o'qitish jarayonining barcha tarkibiy qismlari: o'qitish maqsadi, vazifalari, mazmuni,



metodlari, vositalari va shakllarini tizim shaklida tasavvur qilish va foydalanishni koʻzda tutadi.

**Koʻrgazmalilik tamoyili** – oʻquvchilarni tarbiyalashda tabiiy, tasviriy, tarqatma, didaktik va dinamik materiallar, mulʼtimedia vositalaridan foydalanishni koʻzda tutadi.

**Taʼlim va tarbiyaning uzviyligi tamoyili** – taʼlim jarayonining metodik taʼminoti va boshqarilishida samaradorlikka erishish, oʻquvchilarni tarbiyalash, aqlan, maʼnan, ruhan va jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishni koʻzda tutadi.

**Onglilik tamoyili** – oʻquvchilarni tarbiyalashda oʻqitishning samarali metodi va vositalari oʻquvchilar tomonidan bilimlarni ongli oʻzlashtirishiga zamin tayyorlaydi.

**Tushunarlilik tamoyili** – oʻquvchilarni tarbiyalash jarayonida oʻquvchilarning bilimlarni oʻzlashtirishdagi qiyinchiliklarning oldini olish uchun qoʻllaniladi.

**Uzviylik tamoyili** – oʻquvchilarni tarbiyalash jarayonida oʻquvchilarning avval oʻzlashtirgan bilimlari bilan oʻrganilayotgan mavzudagi bilimlar oʻrtasidagi bogʻlanish boʻlishini, shuningdek, taʼlim mazmuni oʻrtasida uzviylik boʻlishini nazarda tutadi.

**Uygʻunlashtirish tamoyili** – oʻquvchilarni tarbiyalash jarayonida yalpi oʻqitish bilan bir qatorda, oʻquvchilarning individual va guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil etishni taqozo etadi.

**Insonparvarlashtirish tamoyili** – oʻquvchilarning bilim olish, tarbiyalash va rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratish, har bir oʻquvchini oʻz imkoniyati darajasida ijodiy qobiliyatlarini oʻstirishga imkon yaratadi.

**Demokratlashtirish tamoyili** – oʻquvchilarda tarbiyalashni rivojlantirish jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, oʻquvchilar tomonidan oʻz fikrini erkin bayon etish, oʻquv topshiriqlarini bajarishda tanlash huquqini berishni taqozo etadi.

Taylaniladigan didaktik tamoyillar asosida dars mashgʻulotlari, darsdan tashqari mashgʻulotlar va sinfdan tashqari mashgʻulotlarda tarbiyalash koʻnikmalarini tarkib toptirishning metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligi va tizimli tashkil



etilishini taqozo etdi. Ushbu tamoiyillar orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarni jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, ijobiy fikrlashini shakllantirish, har qanday ozgaruvchan sharoitlarda ham to'g'ri qaror qabul qila olish, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan barkamol shaxni tarbiyalashga erishiladi. Jamiyatimizning har qanday taraqqiyoti insonparvar, adolatli, erkin fikrlovchi, faol, o'z vatanini, oilasini sevadigan yashlarni tarbiyalash orqali erishiladi. Bugun yoshlar tarbiyasiga e'tibor berish keljakka e'tibor berish demakdur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 14 mart.

2. Taylakov T.N., Asadov Yu.M. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqqa moyil o'quvchilarni aniqlash mexanizmlari. «Kamalak» nashriyoti. – Toshkent-2017.

3. Taylakov N.I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqqa moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. «Kamalak» nashriyoti. Toshkent. 2017. 320 bet

4. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). – T.: «Ma'naviyat», 2013.

5. Sharipova D, ,Toirova M., Muhamedova S. Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz. – T.: «Ilm ziyo»-2006y.

6. Sharipova D, ,Toirova M., Muhamedova S. Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz. – T.: «Ilm ziyo»-2006y.